

## DOSTONLARDAGI PIR VA ERAN OBRAZLARI

Abduvohidova Sevinch Abduraim qizi

Termiz iqtisodiyot va servise universiteti.

Ergasheva Rayxon O'tkirovna

Ilmiy rahbar. TISU o'qituvchisi.

[abdivoyitovasevinch@gmail.com](mailto:abdivoyitovasevinch@gmail.com)<https://doi.org/10.5281/zenodo.18246592>**Annotatsiya.** Mazkur maqolada dostonlarda Pir va eran obrazlari haqida So'z boradi.**Kalit so'z:** Xalq dostonlari Pir va eran obrazlari.**Abstract.** This article discusses the images of Pir and Eran in epics.**Keywords:** Folk epics, images of Pir and Eran.**Аннотация.** В статье рассматриваются образы Пира и Эрана в былинах.**Ключевые слова:** Народный эпос, образы Пира и Эрана.

Xalq dostonlarida qahramonlar qiyin ahvolda qolgan vaqt ularga yordam beruvchi, murabbiylik qiluvchi obrazlar- pir va eran obrazlari. Eran – o'zbek xalq dostonlarida hamda shomonlik folklorida doston qahramoniga, shomonga doimiy ravishda yordam beruvchi, ustozlik qiluvchi homiy kuch.

Pir (forscha – kekxa, qari)<sup>1</sup> – so'fiylik an'anasida tariqatlarining oliy rahnamolari yoki obro'li rahnamolar. Shuningdek, har bir murid o'z murshidini ham pir deb atagan. Aholi orasida pir tushunchasi avliyo, ma'lum bir hunarning asoschisi ma'nosida ham ishlatiladi.

Xalq dostonlarida pir va eran obrazlari deyarli barchasida uchraydi. Masalan "Alpomish"<sup>2</sup> dostoni. Shohimardon pir obrazi: "Boybo'ri, senga xudoyim bir o'g'il, bir qiz berdi, yolg'iz emas, egiz berdi. Boysari senga xudoyim bir qiz berdi, egiz emas yolg'iz berdi".<sup>10</sup>

<sup>b</sup> Chilton obrazi: "Alpomish otni tepaga to'g'ri qildi, tuyog'idan chiltonlar hami berdi, qirq ming otning dubiri paydo bo'ldi". 124 b Chiltonlar Alpomishga tog'ga chiqishga yordam beradi.

Rajabxo'ja obrazi:

"Falak titrar Qorajonning nolishiga,

Banda ko'nar tangri qilgan ishiga

Boboxonda yig'lab edi Qorajon,

Rajabxo'ja piri yetdi qoshiga.

Karomatman kelib xabar oladi,

Qorajonning qo'lin chechib ko'radi".<sup>199b</sup>

Eshon obrazi: "Eshonning ruhunati Qorajonga ko'rinmaydi, otning to'shida turib, Qorajonga bir so'zni aytadi:

"Dam shu damdir, o'zga damni dam dema,

Boshing eson davlatingni kam dema,

Qoldim deb Qorajon, sira g'am yema."<sup>200b</sup>

Shunday qilib, Boybo'ri, Boysari, Qorajon, Alpomishga bu obrazlar qiyin vaziyatlarda yordam beradi.

"Go'ro'g'lining tug'ilishi"<sup>3</sup> dostonida ham pir va eran obrazlarini ko'rishimiz mumkin.

Masalan: Go'ro'g'li go'rdan chiqqan vaqt Xizr obrazi unga yordam beradi: "Sher mozoristonda yotgan ekan, bolaga qarab tashlandi shunda xazrati Xizr kelib sherni bir tarsaki urdi"<sup>63</sup>. Xizr obrazi:

"Egarlab berarmiz Girko'k otingni,

Ketkazarmiz yuragingdan dardingni,  
Avval boshlab Shirvon eliga borib,  
Shu Rayhon arabdan olgin lotingni,  
Yuragingdan voyim kestin, Go'ro'g'li!"<sup>164</sup>

Go'ro'g'liga Rayhon arabdan qasosini olishda va boshqa vaziyatlarda Xizr obrazi yordam beradi.

"Masposhsho"<sup>4</sup> dostonida chilton obrazini ko'rsak bo'ladi. Bu obraz Abdukarimboy uchun Allohdan farzand so'rab beradi. Chiltonlar:

"Bitta aytgan naqlida  
Yuz odamning naqli bor-  
Xuddi shunday bir o'g'il  
Senga aylaydi ato"<sup>11</sup>

"Kuntug'mish"<sup>5</sup> dostonida Burqsarmast devona Kuntug'mishga ajdarhoni yengishga yordam beradi. Burqsarmast devona:

"-Boshing ko'tar. No'g'ay elening shahzodi,  
Farzandim, To'ymadir ilonning oti  
Men o'zingga aytnas edim otini  
Tog'da qolgan norastaning hurmati  
Zolim ilon qaddi yoyday bukilar,  
Qahr aylasang, tanda qoni to'kilar  
Uch marta To'yma deb, aytsang yiqilar"<sup>68</sup>

E'tibor beradigan bo'lsak ko'p dostonlarda pir va eran obrazlari yosh bolalarga yordam beradi. Negaki dostonlarda kattalarning aybi sababli bolalar qiyinchiliklarga duchor keladi.

Shunaqa dostonlarga yaqqol na'muna bo'la oladigan dostonlardan biri "Shahriyor"<sup>6</sup> dostoni. Bu dostonda chaqaloqlarning shohning ayollari o'ldirmoqchi bo'ladi va Qodirqul degan qulga buni buyuradi. U har safar chaqaloqlarni o'ldirmoqchi bo'lganda pir obrazi bunga yo'l qo'ymaydi. U goh yer goh ko'l goh tog' bo'lib Qodirqulni qo'rqitadi. Tog':

"So'ysang xonning bolasin  
Zor yig'latsang ortinda  
Onasin ham yurtinda  
Turgan joyingda zang'ir  
Ezib yubormasam gar  
Tog' o'tim boshqa bo'lsin"<sup>59</sup>

Yana bir xalq dostoni "Shirin va Shakar"<sup>7</sup> dostoni bu xulosaning yaqqol dalilidir. Bu dostonda Shirin va Shakarni jalodlar Haqiq tog'iga bog'lab ketganda Avazxo'ja ularning qo'lini yechadi va ularga doim qiyin vaziyatlarda yordam beradi.

"Ikkovi ham mo'ylovli aqli shoshdi  
Yig'lab edi komil piri yetishdi  
Qudrat bilan osmon falakka uchdi  
Avazxo'ja kelib qo'lini chechdi"<sup>37</sup>

Xulosa qilib aytish mumkinki xalq dostonlari bor ekanki ularni biz pir va eran obrazlarisiz tasavvur qilolmaymiz. Har bir doston qahramoni pir va eranlarga sig'inadi ulardan yordam so'raydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Milliy ensiklopedyasi (2000-2005)
2. "Alpomish" dostoni "Zukko kitobxon" nashriyoti (2023)
3. "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostoni "Yangi yo'l Poligraph service" Toshkent-2019
4. "Masposhsho" dostoni Toshkent G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti 1985
5. "Kuntug'mish" dostoni "Sharq" nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyoti 2011
6. "Shahriyor" dostoni Toshkent Toshkent G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti 1985
7. "Shirin va Shakar" dostoni G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti Toshkent-1975